

**O‘ZBEK TILIDA OMONIMIYA
(OMOFON VA PARONIMLAR TAHLILI)****Abjalova Manzura Abdurashetovna,***Filologiya fanlari doktori (DSc),**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori**E-pochta: abjalova.manzura@gmail.com**ORCID: 0000-0002-1927-2669*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi omonimiya hodisasi lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda omonimiyaning mohiyati ochib berilib, uning o‘zbek tilida leksik omonimiya, nutqiy omonimiya, affiksial omonimiya, frazeologik omonimiya, turg‘un birikma va so‘z birikmasi omonimiyasi, turg‘un birikma va gap omonimligi mavjudligi misollar bilan berildi, shuningdek, omonimiyaning sof omonimlar va shartli omonimlardan omograf, omoshakl va omofon turlari izchil yoritildi. Xususan, omofon va paronim tushunchalarining fonetik, semantik hamda funksional farqlari qiyosiy tahlil asosida ko‘rsatib berildi. Maqolada omonimik birliklarning nutqdagi o‘rni, ularning kommunikativ jarayonga ta‘siri hamda til me‘yorlari bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida omonimiya muammosini yanada chuqurroq o‘rganish, shuningdek, leksikografiya va ta‘lim amaliyotida foydalanish uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: omonimiya, omonimiya turlari, omograf, omoshakl, omofon, paronim.

Аннотация. В данной статье феномен омонимии в узбекском языке рассматривается с лингвистической точки зрения. Раскрывается сущность омонимии, а также приводятся её виды в узбекском языке: лексическая омонимия, речевая омонимия, аффиксальная омонимия, фразеологическая омонимия, омонимия устойчивых сочетаний и словосочетаний, а также омонимия устойчивых сочетаний и предложений с примерами. Последовательно освещаются типы омонимии: полные (собственно) омонимы и условные омонимы, включая омографы, омоформы и омофоны. Особое внимание уделяется сравнительному анализу фонетических, семантических и функциональных различий между омофонами и паронимами. В статье рассматривается роль омонимических единиц в речи, их влияние на коммуникативный процесс, а также вопросы, связанные с языковыми нормами. Результаты исследования имеют важное научное значение для дальнейшего изучения проблемы омонимии в узбекском языкознании, а также для лексикографической и образовательной практики.

Ключевые слова: омонимия, виды омонимии, омограф, омоформа, омофон, пароним.

Abstract. This article analyzes the phenomenon of homonymy in the Uzbek language from a linguistic perspective. The study elucidates the essence of homonymy and, with illustrative examples, identifies its manifestations in Uzbek, including lexical homonymy, contextual (speech) homonymy, affixal homonymy, phraseological homonymy, homonymy between fixed expressions and word combinations, as well as homonymy between fixed expressions and sentences. Furthermore, the types of homonymy – namely absolute (proper) homonyms and conditional homonyms, including homographs, homoforms, and homophones – are systematically described. Particular attention is paid to a comparative analysis of the phonetic, semantic, and functional differences between homophones and paronyms. The article also discusses the role of homonymic units in discourse, their impact on the communicative process, and issues related to linguistic norms. The findings of the study are of significant scholarly value for further in-depth research on homonymy in Uzbek linguistics and for practical application in lexicography and language education.

Keywords: homonymy, types of homonymy, homograph, homoform, homophone, paronym.

Kirish. Omonimiya hodisasi o‘zbek tilshunosligida muhim lingvistik muammolardan biri bo‘lib, u shakli bir xil, ammo ma‘nosi turlicha bo‘lgan birliklarni o‘rganadi. Omonimlar, omofonlar va paronimlar nutqning ifodaviyligi va aniqligiga bevosita ta‘sir

ko'rsatadi. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi omonimiya turlari, xususan omofon va paronimlarning fonetik hamda semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda omonimiya, omofon va paronimlar masalasi bo'yicha o'zbek va xorijiy tilshunoslikda olib borilgan ilmiy ishlar tahlil qilindi. Sh. Rahmatullayev (1984) o'zbek tilidagi omonimlarni izohlash va tasniflash bo'yicha muhim leksikografik asos yaratgan. A. Ma'rufov (1974) paronimlar lug'ati orqali paronimik birliklarning amaliy jihatlarini yoritgan.


Vasileva (2017) va Poroxnin (2013) ishlarida texnik va rus tilshunosligida omonimiyani farqlash hamda statistik tahlil usullari ko'rib chiqilgan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar omonimiya hodisasining nazariy va amaliy jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, omofon va paronimlarning aniq chegaralarini belgilash hamda ularni raqamli tilshunoslikda qo'llash masalasi hali ham dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Omonimiya, omofon va paronimlarga oid nazariy manbalar o'rganilib, ularning lingvistik xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, misollar asosida birliklarning fonetik va semantik farqlari yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Ma'lumki, omonim so'zlar shakli bir xil, ammo semantikasi turfa xil bo'lgan leksik birliklar hisoblanadi.

Omonimlar, umumiy holatda quyidagicha tasniflanadi:



1-chizma. Omonimlarning umumiy tasnifi.

Omonimiyani yuzaga keltiruvchi mezonlar:

- 1) yozuvdagi bir xillik (aynanlik);
- 2) grammatik aynanlik
- 3) talaffuzdagi aynanlik (o'xshashlik emas).

Ham aytilishi (bunda muayyan unli tovush yo'g'on yo ingizchka talaffuz qilinmasligi kerak), ham yozuvi aynan, ya'ni bir xil bo'lgan so'zlar **sof omonimlar** deyiladi. Ularga, asosan, internatsional yo o'zlashma bo'lmagan so'zlar aynanligi misol bo'la oladi.

Masalan, *uch* (son) *uch* (II shaxs birlikdagi buyruq mayli fe'li), *uch* (biror narsaning tugallangan qismi); *qo'sh* (juft), *qo'sh* (II shaxs birlik, buyruq maylidagi fe'li), *qo'sh* (yer haydash jamlamasi) kabi.


Shartli omonimlar muayyan xususiyatlari, jumladan, 1) talaffuzi; 2) grammatik shaklning birikishi natijasida so'zshaklning boshqa so'z bilan bir bo'lib qolishi; 3) yozilishi (nutq tovushlarining yo'g'on yoki ingichka talaffuzi bilan farqlansa-da) bo'yicha aynanlikka ega bo'lishidan yuzaga keladi. Shu bois ular nutqiy omonimlar ham hisoblanadi. Ular ushbu uch xususiyatga ko'ra uch turga bo'linadi.

1. Omograflar – yozilishi bir xil, ammo talaffuzda biroz farqlanishga ega so'zlar. Omograflar, asosan, urg'u bilan va undosh tovushlarning yo'g'on-ingichka talaffuz qilinishi bilan farqlanadi. Omograflarning katta qismi o'zlashmalar hisobiga yuzaga keladi. Masalan, *atlás* (milliy mato turi), *átlas* (xaritalar to'plami); *agrotéxník* (agrotexnika bo'yicha mutaxassis), *agrotexnik* (agrotexnikaga oid, shunga asoslangan); *o't* (organizmdagi pufak; o' tovushi ingichka talaffuz qilinadi), *o't* (buyruq maylidagi II shaxs fe'li; o' tovushi o'rtacha yo'g'onlikda talaffuz qilinadi), *o't* (olov; o' tovushi yo'g'on talaffuz qilinadi)

2. Omoshakllar – leksemaning muayyan affiks turini biriktirib olgan shakli boshqa so'z bilan bir bo'lib qolgan nutqiy shakllar. Masalan, *tortma* (mebel qismi), *tortma* (tortmoq fe'lining inkor shakli); *terma* (saralangan), *terma* (termoq fe'lining inkor shakli); *terim* (mavsum nomi), *terim* (menga tegishli ter) kabi.

3. Omofonlar – talaffuzi, aytilishi bir xil (aynan), ammo yozilishida biroz, ma'nosi butunlay farqlanish mavjud shakllar. Masalan: *urush* (jang), *urish* (harakat nomi-urmoq), *bukun* (bugun), *bu kun* (o'sha kun) kabi. Omofonlar, ayrim manbalarda aytilganidek, aynan paronimlar emas. Hatto ayrim adabiyotlarda omofonlar deya paronimga oid misollar keltirilgan. Bu ikki lingvistik hodisa o'zaro farqlanadi. Bu haqda maqola so'ngida misollar bilan tushuntirildi.

Omonimlarning so'z turkumi bo'yicha tasnifi (2-chizma):



2-chizma. Omonimlarning so'z turkumlari bo'yicha turlari.

O'zbek tilida quyidagi birliklarning omonimlari mavjud:

1. Leksemalar omonimligi – leksik omonimiya.
2. Leksema va so‘zshakl omonimligi – aralash (nutqiy) omonimiya.
3. Affikslar omonimligi – affiksial omonimiya.
4. Iboralar omonimligi – frazeologik omonimiya.
5. Turg‘un birikma va so‘z birikmasi omonimiyasi.
6. Turg‘un birikma va gap omonimligi.

Yuqoridagi olti xil omonimlikning leksimalar, affikslar va frazeologik birliklar orasidagi omonimlik – til omonimiyasi, so‘zshakl, birikmalar va gaplarning ham aynanligi bo‘yicha turlari nutq omonimiyasi hisoblanadi.

1. **Leksemalar omonimligi** – shakldoshlik so‘z asosida bo‘ladi, ya’ni muayyan so‘z bir so‘z turkumi yoki bir necha turkumga mansub ma’no beradi. Masalan:

<p><i>ot</i> Avval birliklarni, keyin o‘nliklarni qo‘shamiz.</p> <p><i>ot</i> Kuch – birlikda.</p> <p><i>ot</i> Og‘irlik birliklari. Til birliklari</p>	<p><i>modal</i> Suv bor joyda hayot bor. Ruchkang bormi? hisob so‘z Bir necha bor taklif yubordim.</p> <p><i>ot</i> Bor – kimyoviy element. fe‘l Ishga bormoq. Maktabga bormoq.</p>
---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Birinchi ustunda “birlik” so‘zi bir so‘z turkumi doirasida omonim hisoblanadi: 1) o‘ngacha bo‘lgan butun son; grammatik ko‘plik aksi (ot); 2) birlashish, hamjihatlik (ot); 3) bir turdagi miqdorlarni o‘zaro baholash uchun qabul qilingan o‘lchov; til qurilishiga xos termin (ot).

Ikkinchi ustunda “bor” so‘zi ikki xil turkumga mansub shakldoshlikni yuzaga keltirgan: 1) mavjud (modal); 2) marta, daf‘a, bora (hisob so‘z)

2. **Qo‘shimcha omonimligi** – muayyan qo‘shimcha vazifasiga ko‘ra qo‘shimchalarning turli guruhiga mansub bo‘ladi. Masalan:

-ki	<i>ko‘chki, tepki, turtki ustki, ichki, kechki</i>	(ot yasaydi) (sifat yasaydi)
-(i)ng	<i>uying, kitobing, ishing ko‘ring, boring, tayyyorlang</i>	(shakl yasaydi: sintaktik mun.shakli – egalik qo‘shimchasi) (shakl yasaydi: sintaktik mun.shakli – shaxs-son qo‘shimchasi)

3. **Ibora omonimligi** – shakli, ya’ni tuzilishi bir xil, ammo semantikasi turlicha bo‘lgan frazeologik birliklar.

qattiq shovqin soldi uyini boshiga ko‘tarmoq	yuksak darajada izzat-hurmat qildi onasini boshiga ko‘tarmoq
-------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------

4. **Gap omonimligi** – muayyan gap ifoda maqsadi yoki mazmuniga ko‘ra farqlanadi.

darak gap
Ishni bajarmadim.

so'roq gap
Ishni bajarmadim?

Rus tilida omonimlik turlarida so'zlarning turkumligi bo'yicha omonimlik, morfologik omonimlik va leksik omonimlik farqlanadi.[2] E'tiborli jihati shundaki so'zlarni morfologik va leksik omonimligi bo'yicha guruhlanishi tabiiy tilni qayta ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Morfologik omonimlikda bir turkumga mansub bo'lgan shakldosh so'zlar lemma (asosi)si turlicha, ammo muayyan shakllaridagina omonimlikni yuzaga keltiruvchi so'zshakllar e'tiborga olinadi. Masalan:

lemmasi *ter*
terim – mening terim
(-im egalik qo'shimchasi: I shaxs, birlik)

lemmasi *terim*
terim – hosil

Leksik omonimlikda bir lemmaga mansub so'z turli ma'nolarni beradi:

ot
bog' – to'dalab bog'langan holat


Bog'lamoq, bog'lam. Bir bog'
piyoz

ot
bog' – o'simlik va daraxtlar ko'p ekilgan joy

bog'-rog', bog'-bo'ston;
Uzumini ye, bog'ini surishtirma.

Omonimshakllarning morfologik va leksik guruhlanishi matnlarni qayta ishlovchi dasturiy ta'minot va tizimlarda lemmatizatsiya va stemming jarayonlari uchun muhim sanaladi. Har ikki texnologiya so'z yoki so'zshaklning asosini topishga yo'naltirilgan bo'lib, avtomatik morfologik tahlilda muhim ahamiyat kasb etadi.

Omonim so'zlarni avtomatik aniqlashda tobe bog'lanish va semantik valentlik muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan amaliy leksikologiyada NLP masalalarini hal etishda omonimlarning semantik birikuvchilari yoki til korpuslari yordamida ularning kollokatsiyalarini aniqlash talab qilinadi. Masalan, quyidagi chizmada olma (meva)ning o'ng va chap bog'lanuvchi leksik birliklari yordamida dastur uning meva ekanligini aniqlaydi:



PARONIMLAR. Chiroyli soʻzlash, taʻsirchan gapirish va toʻgʻri yozish – maʼnaviy qadriyatlarning alohida ahamiyatga ega boʻlgan turi. Yoqimli, shirali, bejirim soʻzlash va yozish tinglovchi va oʻquvchining ham, soʻzlovchi va yozuvchining ham maʼnaviyatini koʻrsatuvchi qadriyatdir. Nutqqa ifodaviylik, goʻzallik, taʻsirchanlik baxsh etadigan lisoniy omillardan biri paronimlardir.

Paronim soʻzi tarkibidagi yunoncha “*para*” – yaqin, yaqinidagi, yondosh, oʻxshash, “*onuma*” – nom degani. Aristotel taklif qilgan paronim termini, dastlab, *otalik* – *otaliq*, *boʻshlik* – *boʻshliq*, *bolali* – *bolalik* tarzidagi yasama soʻz va soʻzshakllarga nisbatan qoʻllangan. Bu kabi soʻzlarning asosidan soʻnggi qoʻshimchalar maʼno farqlash vazifasini bajaradi va nutqda talaffuz oʻxshashligini hosil qilgan.

Talaffuzdoshlik – fonetik jarayon. Talaffuzda soʻzlarning yaqin, oʻxshash, bir-biriga toʻla, qisman oʻxshatib aytilishi tufayli lafziy uyadoshlik qatori hosil boʻladi. Ilmiy adabiyotlarda paronimlar turlicha taʻriflangan: “Paronimlar talaffuzning oʻxshashligi, morfem sostavining qisman yaqinligi tufayli yozuvda, nutqda adashtirilishi mumkin boʻlgan, qofiyalashda, shuningdek, soʻz oʻyinida ishlatiladigan boshqa-boshqa maʼnodagi soʻzlardir” [3], “faqat bir tovushi bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan soʻzlar” [4].

Paronim terminining lugʻaviy maʼnosi “yonidagi nom”, “qoʻshaloq nom” demakdir. Leksik maʼnoga koʻra oʻzaro aloqador boʻlmagan ikki soʻzning talaffuzda oʻxshashligiga asoslangan ohangdosh soʻzlarga paronimlar deyiladi: *yoriq-yorug*, *qurt-qurut*, *burch-burj*, *abzal-afzal* kabi.

Koʻpchilikka maʼlum taʻrif esa shunday: paronim – talaffuzi birbiriga juda yaqin, ammo yozilishi va maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlar. Masalan, *asr* va *asir*, *afzal* va *abzal*, *sher* va *sheʻr*, *adib* va *adip* kabi soʻz talaffuzda bir xil aytilsa-da, yozilishda farq qiladi. Maʼnosi ham butkul boshqa-boshqa. Paronim ikki xil yozilishga ega boʻlgan, ammo maʼnosi bir xil boʻlgan dubletdan farqlanadi. Masalan, *arava* – *aroba*, *bekik* – *berkik*, *benihoya* – *benihoyat*, *gado* – *gadoy* kabilar paronim emas, balki dublet, variantdosh soʻzlardir.

Soʻzlarda paronimiyaning yuzaga kelishi uchun ularning fonetik tarkibidagi shunchaki oʻxshashlik yetarli emas. Masalan, *tuz* va *tut* soʻzlari tarkibidagi bir tovush (z va t) hisobiga farqli boʻlsa ham, paronim boʻla olmaydi, chunki bu tovushlar artikulyatsion-akustik jihatdan bir-biridan uzoq: t – jarangsiz, til oldi, portlovchi undosh, z – jarangli, til oldi, sirgʻaluvchi undosh. Koʻrinadiki, bu tovushlar faqat artikulyatsiya oʻrniga koʻra bir-biriga yaqin boʻlsa ham, ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra, artikulyatsiya usuli va akustikasiga koʻra boshqa-boshqa tovushlardir. Paronim boʻlish uchun yondosh soʻzlar faqat bir xususiyatiga koʻra farqlanib, boshqa xususiyatlari bilan oʻxshash boʻlishi shart. Masalan, *hol-xol* soʻzlarida h va x paydo boʻlish oʻrniga koʻra, *abzal-afzal* soʻzlarida b va f tovushlari artikulyatsiya usuliga koʻra, farqlanadi va paronimiyaning hosil qiladi.

Paronimlar turli yoʻllar bilan hosil boʻladi:

a) tovush ohangdoshligiga ko'ra: *bot-bod*;

b) turli o'zakdan bir xil qo'shimcha vositasida so'z yasash natijasida: *yonilg'i – yoqilg'i, yolqin-yorqin* kabi;

v) so'z o'zlashtirish vositasida: o'zbekcha *ora>aro*, fors-tojik *oro*, o'zbekcha *burch* arabcha *burj* va boshqalar.

O'zbek tilidagi paronimlarga doir eng so'nggi lug'atda 561 juft paronim juftlar berilgan [1] va uning mobil ilovasi ham yaratilgan [<https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.merasoft.paronim>].

Paronim talaffuz jihatdan o'zaro o'xshash bo'lganligi uchun, undan badiiy adabiyotda qofiyalarni yaratishda, shuningdek, askiya, hazil-mutoyibada ham keng foydalaniladi.

Ingliz tilida o'zining maxsus tarixi tufayli (Rim istilosi, anglosakson o'troqligi, franko-norman istilosi) etimologik paronimlarning nafaqat juftlari, balki uch va to'rtliklari ham uchraydi:

regal – real – royal

legal – leal – loyal

fidelity – faithfulness – fealty

place – plateau – plaza – piazza

captain – capo – chief – chef

hostel – hostel – hospital – hotel

chariot – cart – carriage – car.

Omofonlar va paronimlar. Ko'plab tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham tovush yoki imlo jihatidan o'xshash, ammo ma'nosi turlicha so'zlar va so'zshakllar mavjud. Og'zaki hamda yozma nutq madaniyati haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan shaxs ma'lum bir kontekstda kerak bo'lmagan so'zlarni noto'g'ri qo'llashi mumkin. Bu fikrning ma'nosini buzadi va tushunmovchilikka olib keladi. Shu bois ta'limda so'zlarning shakl va munosabatiga ko'ra turlari: sinonim, antonim, omonim, paronim kabilarni sinchkovlik bilan o'rganishi va ularni o'rinli qo'llay bilishi lozim. Masalan,

La'lidin jonimg'a o'tlar *yoqilur*,

Qoshi qaddimni jafodin *yo qilur*,

Men vafosi va'dasidin shodmen,

Ul vafo, bilmanki, qilmas *yo qilur*. (Alisher Navoiy)

Mazkur tuyuqda qalin yozuv bilan ajratib ko'rsatilgan *yoqilur* (yoqiladi), *yo qilur* (yoy qiladi – bukadi), *yo qilur* (yoki qiladi) shakllar yozuvda emas, balki talaffuzdagina aynanlikka ega bo'lmoqda. Talaffuzda aynanlik, yozuvda biroz farq qiluvchi bunday birliklar tilda omofonlar deyiladi. Masalan, rus tilidagi *no mpu* (uchtadan) va *nompur* (ishqala) so'zshakllari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ayon bo'lganidek, ushbu misollardagi so'zlar turli ma'noli, faqat ayrim grammatik shakllardagina yozilishi va tovushi bir xil bo'lib qolgan. Bunday hodisa tilshunoslikda omofon deyiladi. **Omofonlar – omonimning bir turi.**

Yana bir misol:

Charxi kajraftor elidin *yozamen*,

Chiqmadim hijron qishidin *yoza (yozga) men*.


Bir meni yorliq bila yod etmas ul,

Har necha ul shahg'a qulluq *yozamen*. (Mavlono Lutfiy)

Ushbu tuyuqning 1-misrasidagi *yozamen* (yozg'iraman – shikoyat qilaman) so'zshakli 4-misradagi *yozamen* (yozaman, bitaman) so'zshakli bilan omoshakl, ya'ni muayyan grammatik shakllarning aynan bo'lishi, 2-misradagi *yoza men* (yozga men) so'zlar birlashmasi 1- va 4-misradagi *yozamen* so'zshakllariga omofon bo'lmoqda.

Nazariy va amaliy o'zbek tilshunosligidagi munozarali holat. Tilda paronimlar deb nomlanuvchi lingvistik hodisa (masalan, *ekskavator – eskalator, adil – odil, pisht – kisht* kabi)ni shu vaqtga qadar Sh. Rahmatullayev tushuntirgan dastlabki leksikografik manbadagi [5] omofonlar o'zbek tilshunosligi manbalarida paronimlar hisoblanishi tushuntirib kelingan. Bunga nima sabab bo'lgan? Asosiy sabab Sh. Rahmatullayev o'z lug'atida omofon sifatida paronimlarni ham misol qilib keltirishi bilan belgilanadi. Shu bois keyingi boshqa manbalarda, go'yoki paronim hodisasi o'zbek tilshunosligida endi kashf etilganday, omofonlarni paronimlar deb ta'kidlashadi. Ammo amaliy tilshunoslikda ushbu hodisalarni farqlash lozim.

Asosiy farqi: omofon aynan talaffuzga ega, paronimlar esa o'xshash (3-chizma).



3-chizma. Omofon va paronimlarning farqli jihatlari.

Omofon va paronimlar farqini rus tilidagi yana bir misol bilan tushuntiramiz:

Область рифм – *моя стихия*,

И легко пишу *стихи я*;

Без раздумья, без *отсрочки*

Я бегу к строке *от строчки*;

Даже к финским *скалам бурым*

Обращаюсь *с каламбуром*. (Д. Минаев)

Omonim va paronimlarning uslubiy ahamiyati quyidagicha:

1. Omonimlar yordamida shoirlar adabiy uslubda tuyuq janrini yaratadilar.
2. Omonimlar yordamida nutqning ekspressivligi oshiriladi.
3. Omonim va paronimlar og‘zaki so‘zlashuv nutqida askiya janri uchun katta material bo‘ladi. So‘zning har bir ko‘chma ma‘nosi qo‘shimcha uslubiy (modal) ma‘no ifodalaydi.
4. Omonim va paronimlar kinoya, sarkazm, so‘z o‘yini kabilarda ham qo‘llaniladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, omonimiya hodisasi bo‘yicha tadqiqotlar ko‘lami keng, ammo raqamli texnologiyalar davrida tilning elektron modelini yaratish chog‘ida omonimlikning turli ko‘rinishlarini aniqlash va ularning modelini yaratish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da omonimlar salbiy hodisalar, aniqrog‘i, avtomatik matn tahlilidagi katta muammo hisoblanadi. Hozirgacha matndan omonimlarni avtomatik aniqlash, ularni semantik tahlil qilish, avtomatik tarjima qilish masalasida omonimlar eng dolzarb masalalar qatorida turadi. Shu bois amaliy tilshunoslarning eng birlamchi ishi ham aynan NLP tizimlar xizmatini takomillashtirish maqsadida 1) omonimlar bazasini takomillashtirish; 2) har bir omonimning kollokatsiyasini aniqlash; 3) har bir omonimning semantik valentligini ko‘rsatib berish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abjalova M. O‘zbek tili paronimlarining lug‘ati. [Matn]: o‘quv-uslubiy lug‘at / M.Abjalova. – Termiz, 2022. – 64 b. ISBN 978-9943-7870-6-3
2. Порохин А.А. Анализ статистических методов снятия омонимии в текстах на русском языке. Вестник АГТУ. Сер.: Управление, вычислительная техника и информатика. – 2013. № 2. – С. 168-174.
3. Маъруфов А. Паронимлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 50 б.
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. va boshq. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –Toshkent: Ma‘naviyat, 2015. – B.176–177.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.